



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 146 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadrriddinovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
Go'zal Qurbonova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
Muratova Munavvar O'rol qizi	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
Usmonova Zamira Jaxongirovna	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
Axmedova Shaxlo Shoxob qizi	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
Panayeva Maloxat Muminovna	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
Багдасарова Диана Левоновна	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
Зарымова Турсынай Бердибай кызы	

PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TADQIQOTLARDА TASSAVUR FENOMENOLOGIYASI

Axmedova Shaxlo Shoxob qizi

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0003-7502-7929

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tasavvur fenomenologiyasi haqida so'z yuritilgan bo'lib, unda tasavvur fenomenining psixologiya ilmida o'rganilganlik darajasi va uning xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tasavvur, g'oya, fikr, inson, jarayon, obraz, psixologik, ilmiy.

Abstract: This article discusses the phenomenology of imagination in psychological and pedagogical research, explaining the extent to which the phenomenon of imagination has been studied in psychological science and describing its characteristics.

Key words: Imagination, idea, thought, person, process, image, psychological, scientific.

Аннотация: В данной статье рассматривается феноменология воображения в психолого-педагогических исследованиях; раскрывается степень изученности данного феномена в психологической науке и описываются его основные характеристики.

Ключевые слова: Воображение, идея, мысль, человек, процесс, образ, психологический, научный.

KIRISH

Tasavvur jarayonining tabiati haqida adabiyotlarda turli ilmiy nuqtai nazarlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar tasavvurni asosan yangi qiyofalar va obrazlarni yaratish jarayoni sifatida talqin qilib, uning mazmun-mohiyatida yangi fikrlar yoki g'oyalarni yaratish funksiyasi ustuvor emas, deb hisoblaydilar. Bunday yondashuvda tasavvur real tajriba asosida qayta kombinatsiya qilingan obrazlarning sintetik shakllanishi sifatida tushuniladi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, tasavvur inson miyasida sodir bo'ladigan psixik jarayondir. Tasavvur inson faoliyatining turli sohalarida muhim rol o'ynaydi. Chunki mehnatning natijasini aniq tasavvur qilmasdan turib, kishi ishga kirishmaydi. Mehnatning bo'lajak natijasini tasavvur qilish orqali uni oldindan ko'ra bilish inson faoliyatining hayvonlar instinktiv harakatlaridan tubdan farq qiluvchi jihati hisoblanadi. Har qanday mehnat jarayonida tasavvur faol ishtirok etadi. Tasavvur, ayniqsa, badiiy, ilmiy, adabiy, texnik, konstruktorlik faoliyatida, umuman, ijodiy faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

V.V. Davidov mutlaqo boshqa ilmiy pozitsiyani ilgari suradi. Uning fikricha, tasavvur nafaqat yangi obrazlarni, balki yangi fikrlar, g'oyalar va tushunchalarni yaratadigan ijodiy-kognitiv jarayondir. Uning nazariyasida tasavvur innovatsion faoliyatning manbai bo'lib, uning asosida yangi harakat usullari, yangi predmetlar va yangi psixologik konstruksiyalar yuzaga keladi. Shu ma'noda, tasavvur insonning ijodiy rivojlanishida bosh omil sifatida namoyon bo'ladi ^[1].

K.D. Ushinskiyning qarashlari esa mazmun jihatidan ushbu ikki yo'nalishni birlashtiruvchi xususiyatga ega. U haqiqiy tasavvurning manbai sifatida inson atrofidagi voqelikdan olingan taassurotlarni belgilaydi. Uning fikricha, tasavvur inson xotirasida saqlanib qolgan obrazlar, fikrlar va g'oyalar bilan ishlaydi, ya'ni yangi tasvirlar va g'oyalar mavjud tajriba materialining qayta ishlanishi asosida vujudga keladi. Shu tariqa, Ushinskiy tasavvurni real tajribaga tayanadigan, biroq bu tajribani yangi ma'noda qayta tashkil etish imkonini beruvchi faol kognitiv jarayon sifatida asoslab beradi ^[2].



Tasavvur dizayner, ixtirochi kabi g'oyasi va rejasi real obrazga ega bo'lgan hamda voqelikni o'zgartirishga yo'naltirilgan mutaxassislar faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. A. Potebnyaning fikricha, "tasavvur tafakkurimizning ajralmas qismidir. Tasavvur faqatgina so'zda namoyon bo'ladi. So'z esa boshqa so'zlar bilan birikishidan qat'i nazar, shakl va tasavvurdan tashkil topgan jonli tildagi fikrning ifodasidir. So'z inson qalbidagi fikrning tashqi ko'rinishidir. U inson tabiatining nozik joyidan (yuragidan) oqib chiqadigan fikrni yaratuvchi qurol (vosita)dir" [3]. Bu o'rinda tasavvur, fikr va so'z ko'rinishidagi ketma-ketlik hosil bo'lmoqda.

N. Palaginaning ta'kidlashicha, tasavvur hozirgi yoki o'tmishda mavjud bo'lgan, ammo hali bizning tajribamizda uchramagan va biz idrok qilmagan narsa hamda hodisalar to'g'risida tasavvurlar va obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan xayol turidir. Tasavvurning psixik jarayon sifatidagi birinchi va asosiy vazifasi mehnatning bo'lajak natijasini (masalan, stulni tayyor holatda) oldindan ko'ra bilish bilan birga, uning oraliq mahsulotlarini (stul uchun zarur bo'lgan barcha detallarni birin-ketin yasash) ham oldindan aniq tasavvur qila olishdan iboratdir [4].

Bundan tashqari, tasavvurning vazifasi o'zimiz bevosita ko'rmagan, idrok qilmagan narsa va hodisalarning obrazlarini miyamizda gavdalandirishdan ham iboratdir.

E. Klinger tasavvurni insonning uzluksiz ichki faoliyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, tasavvur g'oyalar, orzular, maqsadlarga oid rejalar, xayollar va ichki mulohazalar (ichki monologlar) shaklida namoyon bo'ladigan kognitiv jarayonlarni o'z ichiga oladi. Klinger nazariyasida tasavvur faqat obrazli xayol emas, balki insonning kundalik ruhiy hayotini tashkil etuvchi, ma'lumotlarni qayta ishlash, vaziyatlarni baholash va qaror qabul qilishda ishtirok etuvchi universal kognitiv mexanizm sifatida qaraladi. Muhim jihati shundaki, tadqiqotchi tasavvurning insonning umumiy moslashuv (adaptatsiya) qobiliyatidagi o'rniga alohida e'tibor qaratadi. U tasavvurni moslashuv faoliyatida, ayniqsa, quyidagi ikki holatda muhim deb hisoblaydi.

Ma'lumot yetarli bo'lmagan sharoitda: Inson to'liq va aniq ma'lumotga ega bo'lmagan hollarda tasavvur reallikdagi bo'shliqlarni to'ldiruvchi funksiyani bajaradi. U mavjud tajriba, ehtimollar va taxminiy ssenariylar asosida vaziyat haqida kognitiv modellar yaratadi va bu kam ma'lumot sharoitida oqilona harakat qilish imkonini beradi.

Ma'lumot haddan tashqari yetarli bo'lgan sharoitda: Inson katta hajmdagi axborotni qabul qilganda uni birlamchi saralash, afzal yo'nalishlarni belgilash va vazifalarni tartibga solish uchun tasavvur jarayoni faollashadi. Bu orqali subyekt vaziyatning asosiy mazmunini to'g'ri ko'ra oladi hamda ortiqcha ma'lumotlardan xulosa chiqarishda adashmaydi. Shu tariqa, Klinger tasavvurni faqat estetik xayollar majmuasi sifatida emas, balki insonning ruhiy barqarorligi va samarali moslashuvini ta'minlovchi murakkab kognitiv-adaptiv mexanizm sifatida asosli ravishda tushuntiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tasavvur fenomenidan ko'ra psixologiya ilmidagi kamroq o'rganilgan muammo deyarli yo'q. Tasavvur fenomeni qadimdan falsafiy asarlarda ko'rib chiqilgan. Unda quyidagi ikki asosiy xususiyat ta'kidlanadi: harakatlarni tartibga solishdagi, harakatlarning g'oyaga bo'ysunishidagi hamda mehnat faoliyatini tashkil etishdagi muhim roli. Bu yerda tasavvur mehnatning yakuniy mahsuloti haqidagi obraz va uzoq muddatli maqsadlarga erishishdagi rag'bat sifatida namoyon bo'ladi; tasavvurning dunyoni bilishdagi ishtiroki. Bu yerda u real va noreal narsalarni tasavvur qilish hamda umumlashtirishning obrazli komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy falsafada tasavvurni ilmiy jihatdan o'rganishni E.V. Ilyenkov boshlab bergan.

Muallif ta'kidlaydiki, tasavvurning o'ziga xosligi obrazlar darajasida umumiylikni idrok etish, "qismlardan oldin butunni ko'ra olish" qobiliyatidadir. Uning asosiy funksiyasi obrazlarni qayta kombinatsiyalash, bir ob'yektning belgilarini boshqasiga ko'chirishdan iborat. Tasavvurning ijodiy jarayon sifatidagi psixologik xususiyatlarini T. Ribo yoritib bergan. U tasavvurning ikki tomonlama tabiatini ochib beradi: tajribaga bog'liqlik va tajribani o'zgartirish. Yangi obrazlarni yaratish usullari sifatida agglyutinatsiya, sxematizatsiya hamda oldingi tajriba elementlarini kattalashtirish va kichraytirishni ko'rsatadi. Tasavvurning asosiy mexanizmi tajriba elementlarining dissotsiatsiyasi va assotsiatsiyasi, ularning ajratilishi hamda yangi kombinatsiyalarda birlashtirilishidir. Muallif tasavvurning asosiy funksiyasi bilish emas, balki tasvirlash deb hisoblaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz olimlarining ham bu boradagi fikrlari o'ziga xosdir. U.A. Aybekovanning fikriga ko'ra, tasavvur – bu "insonning shunday faoliyatiki, uning pirovardida inson tajribasidagi taassurotlar yoki harakatlarni takrorlash emas, balki yangi tasvirlar yoki harakatlarni yaratish sodir bo'ladi. Bu jarayonda predmet tasvirini o'zgartirish jarayoni, voqelikni hissiy aks ettirishning har qanday jarayonining, umuman olganda, inson tomonidan dunyoni aqliy aks ettirishning yagona umumiy jarayonining bir jihati namoyon bo'ladi" [5].

Tasavvur inson ruhiy jarayonlarining o'ziga xos shakli bo'lib, his-tuyg'ular, tafakkur va xotira o'rtasida oraliq o'rinni egallaydi. Ushbu psixik jarayonning o'ziga xosligi shundaki, u inson organizmining murakkab faoliyati

bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni paytda barcha ruhiy jarayonlarning shakllanishi uchun muhim asos hisoblanadi. Shu bois tasavvur voqelikni anglash va tushuntirishga xizmat qiluvchi muhim psixik mexanizm sifatida qaraladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-metodik izlanishlar ta'limning turli bosqichlarida kreativlikni, ijodkorlikni va tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlardir. Bir qator tadqiqotlarda tasavvurning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

1. **Ob'yektiv tasavvur** – bunda bola o'zi idrok etgan ob'yektiv dunyoni aynan o'sha holatda ifodalaydi.
2. **Hissiy tasavvur** – bunda bola o'z kechinmalari va hissiy tajribalarini emotsional tarzda ifodalaydi.
3. **Passiv (ixtiyorsiz) tasavvur** – insonning ongli nazoratisiz, ixtiyoriy boshqaruvsiz yuzaga keladigan tasavvur jarayonidir. U odatda tashqi yoki ichki stimullar ta'sirida o'z-o'zidan paydo bo'ladi va subyektdan maxsus aqliy kuch yoki maqsad talab qilmaydi. Neyropsixologiya nuqtai nazaridan passiv tasavvur limbik tizim hamda ong osti mexanizmlarining faollashuvi bilan bog'liq.

Psixologik jihatdan u xotiradagi obrazlarning stixiyali tiklanishi va emotsional holat ta'sirida o'z-o'zidan yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Passiv tasavvurda subyektiv boshqaruv minimal bo'lib, jarayonning dinamikasi ko'pincha ong osti mexanizmlari tomonidan belgilanadi. (Masalan, inson uxlayotganda miyada xotira izlari o'z-o'zidan birlashib, obrazli ssenariylarga aylanadi. Bu passiv tasavvurning eng yorqin shaklidir. Yoki kechasi yolg'iz yurganda inson ongsiz ravishda xavfli vaziyatlarni "ko'z oldiga keltirishi" mumkin.)

1. **Faol (ixtiyoriy) tasavvur** – inson tomonidan maqsadga yo'naltirilgan holda, ixtiyoriy boshqaruv asosida amalga oshiriladigan tasavvur jarayonidir. U subyektning rejalashtirish, ijod qilish va aqliy modellashtirish faoliyati bilan bog'liq. Kognitiv psixologiyada faol tasavvur prefrontal po'stloq faoliyati bilan bog'lanadi, chunki u rejalashtirish, nazorat va maqsadga yo'naltirilgan fikrlashni ta'minlaydi. Faol tasavvurda subyektiv obrazlarni ongli ravishda yaratadi, o'zgartiradi va mantiqiy tarzda tashkil etadi. U o'rganish, ijod va prognozlash jarayonlarining asosiy kognitiv mexanizmi sifatida qaraladi. (Masalan, inson kelgusi oyda bajaradigan ishlarini ko'z oldiga keltirib, obrazli ssenariy tuzishi mumkin.)
2. **Qiyofali (obrazli) tasavvur** – tashqi dunyo ob'yektlari va hodisalari haqidagi ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish hamda taktil sezgilarga asoslangan obrazli tasavvurlarning qayta tiklanishi yoki yangidan yaratilishi jarayonidir. U ilmiy adabiyotlarda "sensor-obrazli kognitsiya" sifatida ham talqin qilinadi. (Masalan, rassom yoki talabaning kartinani chizishdan oldin uning ko'z oldida gavdalanishi.)
3. **Verbal tasavvur** – voqelik haqidagi obrazlarni so'zlar, til birliklari va lingvistik konstruksiyalar orqali shakllantirish hamda qayta yaratish jarayonidir. U neyrolingvistik kognitsiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, til va tasavvur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etadi. (Masalan, kitob o'qiyotganda muallif tasvirlagan hodisalarni ko'z oldiga keltirish.)
4. **Perseptiv tasavvur** – to'g'ridan to'g'ri hissiy idrok (persepsiya) asosida shakllangan obrazlarni qayta tiklash yoki o'zgartirish jarayonidir. Uning asosiy xususiyati shundaki, tasavvurdagi obraz real idrok qilingan sensor ma'lumotlarga bevosita bog'liq bo'ladi. Perseptiv tasavvurda ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va taktil sezgilardan olingan ma'lumotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. (Masalan, biror musiqani tinglagandan keyin uni xayolda qayta eshitish.)
5. **Kognitiv tasavvur** – insonning abstrakt fikrlashi, mantiqiy modellashtirish, ijodiy rekonstruksiya va intellektual prognozlash kabi yuqori kognitiv funksiyalari bilan bog'liq tasavvur shaklidir. U nafaqat obrazlarni, balki tushunchalar, g'oyalar, munosabatlar va qonuniyatlar kabi intellektual birliklarning fikriy modellashtirilishini ham o'z ichiga oladi. (Masalan, qurilish loyihasini aqlan prognoz qilish, undagi kuchlar taqsimoti, konstruksiya va materiallar joylashuvini fikran modellashtirish.)

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tasavvur muammoli vaziyat, ya'ni ehtiyojlarni qondirish uchun yangi usullarni izlash jarayonida vujudga keladi. Boshqacha aytganda, ehtiyojni qondirish uchun ehtiyoj sezilayotgan narsani aniq va ravshan tasavvur qilish zarur bo'ladi. Tasavvur jarayoni orqali borliq aniq obrazlar, ya'ni aniq tasavvurlar shaklida aks ettirilsa, tafakkur jarayoni orqali esa tushunchalar vositasida aks ettiriladi. Ko'pincha biror ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat jarayonida tasavvur va tafakkur birgalikda ishtirok etadi. Ya'ni har bir harakat fikr yuritish orqali amalga oshirilishi bilan birga, uning usullari ham yaqqol tasavvur qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. – М.: Педагогика, 1986. – 240 с. – С. 120–145.
2. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. – М.: Педагогика, 1988. – 512 с. – С. 230–260.
3. Потебня А.А. Мысль и язык. – Киев: Синто, 1993. – 192 с. – С. 35–60.
4. Палагина Н.Н. Психология. – М.: Академия, 2008. – 256 с. – С. 140–160.
5. Aybekova U.A. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 280 b. – 150–165-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.